

## Turizm sohasidagi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsion yechimlar

Sunnatbek Safo o'g'li No'monov  
Buxoro xalqaro universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm iqtisodiy samaradorlikni oshirish tahlil qilinadi. Turizm sektori mamlakat iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadigan soha bo'lib, uning iqtisodiy samaradorligi valyuta tushumlari, ish o'rinlari yaratish, mahalliy biznesni rivojlantirish va xizmat ko'rsatish innovatsiyalarining samaradorlikka ta'siri ko'rsatadi. Mazkur maqolada turizm sohasining iqtisodiy ahamiyati va samaradorlikni baholash mezonlari, shuningdek, turizmni rivojlantirishning samaradorligini oshirish yo'llari keltirilgan, texnologiyalar va boshqaruv modellari muhim omil sifatida o'rganiladi. Turizmni rivojlantirishda marketing, infratuzilma, va xizmatlar sifatini yaxshilash kabi strategiyalar muhim ro'l egallagan. Umuman olganda, turizm iqtisodiy samaradorlikni oshirish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi va raqamli transformatsiyani jadallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** turizm, innovatsiya, iqtisodiy samaradorlik, raqamli texnologiya, xizmat sifati, ish o'rinlari, mahalliy biznes, marketing

## Innovative solutions for increasing economic efficiency in the tourism sector

Sunnatbek Safo o'g'li No'monov  
Bukhara International University

**Abstract:** This article analyzes the improvement of economic efficiency in tourism. The tourism sector is a sector that has a significant impact on the country's economy, and its economic efficiency is determined by the impact of foreign exchange earnings, job creation, local business development, and service innovation on efficiency. This article presents the economic significance of the tourism sector and the criteria for assessing efficiency, as well as ways to improve the efficiency of tourism development, and examines technologies and management models as important factors. Strategies such as marketing, infrastructure, and improving the quality of services have played an important role in the development of tourism. In general, improving economic efficiency in tourism helps ensure the long-term economic

stability of the country, and proposals have been developed to accelerate digital transformation.

**Keywords:** tourism, innovation, economic efficiency, digital technology, service quality, jobs, local business, marketing

## Kirish

Turizm sohasidagi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsion yechimlar, mamlakatga valyuta tushumlarini jalb etish, ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashda katta ahamiyat ega. So‘nggi yillarda Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga qaratilgan qator davlat dasturlari va islohotlar amalga oshirilmoqda. Ularning muvaffaqiyati esa ko‘p jihatdan sohada innovatsion yondashuvlarning qo‘llanilishiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda turizmni innovatsion yechimlar orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlari o‘rganiladi. Innovatsiya bu yangi g‘oyalar, texnologiyalar va boshqaruv uslublarini amaliyotga joriy etish orqali samaradorlikka erishish vositasidir. Turizm sohasida bu jarayon xizmat ko‘rsatish usullarini takomillashtirish, mijozlar ehtiyojlarini aniqlash va ularni qondirish darajasini oshirish orqali namoyon bo‘ladi.

Mamlakatimizda turizmning hozirgi holati va muammolari 2020-2024 yillar davomida pandemiyadan keyingi davrda O‘zbekiston turizmida ijobiy o‘shish kuzatildi. Biroq hali-hanuz xizmatlar sifati, marketing strategiyalari va innovatsion infratuzilmaning yetishmasligi asosiy muammolar sifatida saqlanib qolmoqda. Quyidagi jadvalda soha rivojlanishining asosiy statistik ko‘rsatkichlari yoritilgan:

| Yil  | Sayyohlar soni (ming) | Xizmat hajmi (mlrd so‘m) | O‘shish sur‘ati (%) |
|------|-----------------------|--------------------------|---------------------|
| 2020 | 1500                  | 2100                     | -25                 |
| 2021 | 2800                  | 3500                     | 15                  |
| 2022 | 4200                  | 5700                     | 22                  |
| 2023 | 5100                  | 7400                     | 18                  |
| 2024 | 6300                  | 9100                     | 21                  |

Innovatsion yechimlar orqali samaradorlikni oshirish yo‘llari, turizm sohasidagi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda quyidagi innovatsion yo‘nalishlar alohida ahamiyatga ega:

- Raqamli platformalar (online bronlash, mobil ilovalar);
- Smart turizm texnologiyalari (AR/VR, IoT);
- Turistik marketingda sun‘iy intellekt qo‘llanilishi;
- Xizmatlar sifati monitoringi va mijozlar tahlili;
- Davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion loyihalar.
- Yangi xizmat turlari (eko-turizm, sog‘lomlashtirish turizmi);
- Logistika va transport infratuzilmasi rivoji;
- Inson kapitaliga investitsiyalar (malakali kadrlar).

Turizm sohasidagi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsion yechimlar innovatsion texnologiyalarni joriy etish - xizmat ko‘rsatish tizimini optimallashtirish,

xarajatlarni kamaytirish va turistlar ehtiyojlariga mos xizmatlar yaratish imkonini ega. Raqamli bronlash tizimlari, mobil ilovalar, AR/VR texnologiyalar, va sun'iy intellekt asosida mijozlar xatti-harakatini tahlil qilish samaradorlikni oshirishning zamonaviy vositalaridir.

O'zbekistonda 2020-2024 yillar davomida sayyohlar soni va xizmatlar hajmi sezilarli darajada ortdi. Biroq xizmatlar sifati, kadrlar malakasi va infratuzilmaning ayrim jihatlari hanuz muammo bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda respublikamizda turizm sohasidagi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsion yechimlar, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilayotgan katta hajmdagi chora-tadbirlarga qaramay, turizm sohasida innovatsion faollikni oshirish bo'yicha salbiy tendensiyalar mavjud. Tadbirkorlik faoliyatini, xususan, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning hozirgi holati sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, turistik innovatsion muhitni shakllantirish, innovatsiyalarga talab va taklifni rag'batlantirish, turizm bozorida raqobat muhitini shakllantirish hamda turistik mahsulotlar va xizmatlar sifati oshirish bilan bog'liq vazifalarni hal qilishni nazarda tutadi. Shunga qaramay, keyingi yillarda mamlakatimiz tomonidan innovatsion rivojlanishga katta e'tibor qaratilayotgani, innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar faol ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Biroq, bu chora-tadbirlarning katta qismi moddiy ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan. Innovatsion faoliyat - bu innovatsion jarayonlarni amalga oshirish bo'yicha aniq harakatlar majmuini o'z ichiga oluvchi resurslardan foydalanish intensivligi va ma'lum bir natijaga yo'naltirilganlik darajasiga bog'liq korxonaning safarbar qilingan innovatsion salohiyati va innovatsion boshqaruv tizimining samaradorligi darajasidir.

Turizm sohasida innovatsion faoliyat - bu turizm va rekreatsiya sohasidagi mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiyalash, turistik resurs salohiyatini oshirish, turizm industriyasidagi biznes jarayonlarini takomillashtirish, uning institutsional muhitini yaxshilash, sohada mehnat va boshqaruvni tashkil etishga yo'naltirilgan keng ko'lamli innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish va tarqatish bo'yicha faoliyatdir. Innovatsiyalarni kompleks rivojlantirish tendensiyalari va qonuniyatlarini o'rganish, ijobiy natijalarni rejalashtirish va ularni boshqarish turizm sohasidagi murakkab metodologik muammo bo'lib, birinchi navbatda innovatsiyalarni tasniflash bilan bog'liq. Shunga ko'ra, turizmdagi innovatsiyalarni tasniflash bo'yicha yondashuvlarni umumlashtirish natija-sida innovatsion faoliyat obyektiga qarab turizm sohasidagi innovatsiyalarni tasniflashga mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi. Turizm sohasining innovatsion rivojlanish mexanizmi bozor tamoyillari asosiga qurilgan bo'lib, innovatsion faollikni oshirish, sohada innovatsiyalarga talab va taklif o'rtasidagi muvofiqlikka erishish, turistik mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqishda intensivlikni ta'minlash hamda sifatni oshirish jarayonlariga yo'naltirilgandir. Shunga

ko'ra, turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning ilmiylik, barqarorlik, innovatsiyalarni turistlar ehtiyojlariga moslashtirish, ijobiy natijalarga erishish, investitsiya jarayonlariga immanentlik, innovatsion faoliyat va uning natijalari (innovatsiyalar)ning jamiyat taraqqiyoti darajasiga mos kelishiuzviylik hamda xavfsizlik tamoyillari ishlab chiqildi.

Turizm sohasida innovatsion jarayonlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, odatda, u bir tomondan, turizm bozori va turistlarning qoniqish darajasi orqali, ikkinchi tomondan, turizm tashkilotlari, hududdagi tarmoqlar subyektlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va faoliyati turizm bilan bog'liq o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlari tomonidan qo'shma qarorlar qabul qilinishi orqali amalga oshiriladi. Innovatsion jarayonning barcha elementlarining bunday o'zaro munosabati turizm sohasining rivojlanishi sifatida belgilangan muhim sinergetik samaraning paydo bo'lishig

Mamlakatimizda turizm sohasining jadal rivojlanishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlarni qo'llashni talab qilmoqda. So'nggi yillarda xizmatlar sifati, AKT infratuzilmasi va marketing strategiyalarining ahamiyati ortmoqda. Turizmda innovatsion faoliyatning nazariy asoslari Innovatsiya bu yangi g'oyalar, texnologiyalar va boshqaruv uslublarini amaliyotga joriy etish orqali samaradorlikka erishish vositasidir. Turizm sohasida bu jarayon xizmat ko'rsatish usullarini takomillashtirish, mijozlar ehtiyojlarini aniqlash va ularni qondirish darajasini oshirish orqali namoyon bo'ladi. Innovatsion faoliyat o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) joriy etilishi;
- Yangi xizmat turlari (eko-turizm, sog'lomlashtirish turizmi);
- Logistika va transport infratuzilmasi rivoji;
- Inson kapitaliga investitsiyalar (malakali kadrlar).

Mamlakatimizda turizmning hozirgi holati va muammolari 2020-2024 yillar davomida pandemiyadan keyingi davrda O'zbekiston turizmida ijobiy o'sish kuzatildi. Biroq hali-hanuz xizmatlar sifati, marketing strategiyalari va innovatsion infratuzilmaning yetishmasligi asosiy muammolar sifatida saqlanib qolmoqda.

Innovatsion yechimlar orqali samaradorlikni oshirish yo'llari. Turizm sohasidagi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda quyidagi innovatsion yo'nalishlar alohida ahamiyatga ega. Raqamli platformalar (online bronlash, mobil ilovalar) Smart turizm texnologiyalari (AR/VR, IoT) Turistik marketingda sun'iy intellekt qo'llanilishi xizmatlar sifati monitoringi va mijozlar tahlili Davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion loyihalar hamda O'zbekiston turizm sohasida innovatsiyalarni keng joriy etish orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishish imkoniyatiga ega. Buning uchun Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish turizm sohasining yaratiladigan yalpi ichki mahsulotdagi, mahalliy budjetlar daromadlaridagi, bandlikni ta'minlash, aholining

turmush darajasi va sifatini oshirishdagi hissasini oshirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Xususiyl tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'tkazilayotgan islohotlar oqimida xususiyl tursanoat sektorini jadal rivojlantirish bo'yicha qulay shart-sharoitlar shakllantirilmoqda, jamoat tashkilotlari, kichik va o'rta biznes vakillaridan chiqayotgan tashabbuslar faol rag'batlantirilmoqda. Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan turizm sanoati turistik mahsulotlar va xizmatlar sohasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini yanada chuqurlashtirishga, raqobat kurashida o'z pozitsiyalarini yaxshilash uchun zamonaviy innovatsion yechimlarni joriy etishga qaratilgan. 2018 yili O'zbekistonda «O'zaro Hisoblashishlar va Distributsiyalashning yagona neytral tizimi ishtirokchilari assotsiatsiyasi» ta'sis etildi. Uning maqsadi turizm sohasining barcha yo'nalishlariga oid yagona axborot resurslari bankiga ega unifikatsiyalangan turistik navigatsiya tizimini shakllantirishdan iborat. Shuningdek iqtisodiy faoliyatni yuritishning teng huquqli shart-sharoitlarini hamda uning barcha ishtirokchilari uchun biznes-jarayonlarning shaffofligini ta'minlash mexanizmini yaratish ham ko'zda tutilgan. Yo'lovchi tashuvlarini va xizmatlarni sotish bo'yicha sifat jihatdan yangi jarayonlarni yaratishda, sotuvlar protseduralarini real soddalashtirish, texnologiyalarni standartlashtirish, hisobotlilikni shakllantirish va tizim ishtirokchilari o'rtasida kirimlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish yo'li bilan turistik agentliklarning raqobatbardoshlilikini oshirish imkonini beruvchi noyob vositani bozorda joriy etishga tayyorlashda faol qatnashish Assotsiatsiyaning vazifalariga kiradi. Assotsiatsiya qarorlari tufayli uning ishtirokchilari taqdim etiladigan xizmatlar sifati va turlarini sezilarli darajada oshirish, o'z turistik mahsulotini ichki va xalqaro bozorlarda yanada faolroq va ishonchliroq tarzda ilgari surish kabi noyob imkoniyatga ega bo'ladi. Aviakompaniyalar, temir yo'l va avtobus kompaniyalari, turistik agentliklar, mehmonxonalar, tashuvlarni sotish bo'yicha agentliklar, o'quv markazlari, shuningdek kinoteatrlar, restoranlar, o'z faoliyatini ham O'zbekistonda, ham xorijda amalga oshiruvchi Event-agentliklar Assotsiatsiya ishtirokchisi va taklif qilinayotgan tizim foydalanuvchisi bo'lishi mumkin. Turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yechimlar, uning o'sishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Samarali turizm siyosati va strategiyalari yordamida mamlakatlar nafaqat turistlar sonini oshirishi, balki turizmdan olinadigan daromadlarni ko'paytirishlari imkoniga ega bo'ladi. Ushbu maqolada turizmda iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsion yechimlar, asosiy mezonlari va turizmni rivojlantirish yo'llari keltirib o'tilgan.

#### Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Turizm sohasidagi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsion yechimlar, O'zbekiston turizm sohasida innovatsiyalarni keng joriy etish orqali yuqori iqtisodiy natijalarga erishish mumkin. Buning uchun:

- Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish;

- AKT sohasiga investitsiyalarni jalb qilish;
- Kadrlar salohiyatini oshirish;
- Xizmat ko'rsatish standartlarini xalqaro darajaga olib chiqish lozim.

Davlat tomonidan strategik qo'llab-quvvatlash bilan birga, xususiy sektorning ham faol ishtiroki zarur bo'ladi. Turizm sohasining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yechimlar, mamlakatlarning iqtisodiy strategiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Samarali turizm siyosati va strategiyalari yordamida iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish, soliq tushumlari va mahalliy biznesni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turizm va madaniy meros agentligi statistik ma'lumotlari (2020-2024).
2. Ilmiy maqolalar va monografiyalar (Mahmudov A., Ergashev B. va boshqalar).
3. World Travel & Tourism Council (WTTC). (2023). Economic Impact Reports. Retrieved from <https://wttc.org/research/economic-impact>
4. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2022). Investment Policy Hub. Retrieved from <https://investmentpolicy.unctad.org/>
5. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2021). Tourism and Culture. Retrieved from <https://www.unwto.org/wtd2021>
6. Sulstonova Yulduzxon Kamoldinovna. (2024). O'zbekiston turizm bozorini diversifikatsiya qilishda smart mutaxassislik o'rni. University Research Base.
7. O'tkir Axmedov. (2022). O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga oid iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini baholash. Scienceweb.
8. Nazarov, Nazar & Shomurodova, Shahnoza. (2024). O'zbekiston turizmini rivojlantirishda innovatsiyalarning ahamiyati. Zenodo.
9. Shukurov, T.I. (2024). Xizmat ko'rsatishda turizm sohasini rivojlantirishning innovatsion yo'nalishlari. Educational Research in Universal Sciences.
10. Jabborova, Zuhra. (2024). Turizmدا innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Innovatsion texnologiyalar.